



MUHIM TASHABBUSLAR IJROSI YO'LIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tgan edi.

Yig'ilish davomida davlatimiz rahbari joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holatini o'rganib, faoliyatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berdi.



Topshiriqda ko'rsatilgan muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash ularni bartaraf etish choralarini ko'rish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yuldashev boshchiligidagi bir qator madaniyat sohasi bilimdonlari bugun yurtimizning chekka hududlaridan biri hisoblanadigan Namangan viloyatidagi san'at va madaniyat muassasalarida bo'lishdi.



Viloyatning Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlaridagi madaniyat uylarida bo'lib o'tgan uchrashuvlar davomida professor-o'qituvchilar u yerda yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar

bilan tanishib, viloyat san'at va musiqa maktablaridagi moddiy-texnik bazaning mavjudligi hamda ulardan foydalanish holatini o'rganib chiqishdi.



Ayni paytda o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda bartaraf etish shu bilan birga Namanganlik ijodkor yoshlarning xohish-istaklarini qo'llab-quvvatlash borasida yetarlicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ziyolilar hamda san'at va madaniyat xodimlarining viloyatlarga tashrifi davom etadi.

O'zDSMI Axborot xizmati